

“MILLIY TARBIYA ASOSLARI”

Andijon viloyati Andijon shahar
Andijon davlat pedagogika instituti,
pedagogika fakulteti, boshlangich talim
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Sultonov Ismoiljon Qodirjon o'g'li

***Annotatsiya:** Ushbu maqolad tarbiya va milliy tarbiyaning maqsadi vazifalari va uning mazmun mohiyati ochib berish va yoshlarimiz ongiga singdirish*

***Kalit so'zlar:** Tarbiya va tarbiya turlari, milliy tarbiya, tarbiyaning maqsadi, milliylik.*

Asrlar davomida bizning ota-bobolarimizdan ardoqlanib kelingan milliy qadriyatlar tayangan holda shakllangan milliy tarbiyaning bor bu o'z navbatida bizning mustaqillik yillaridan oldin yani Amir Temur va Temuriylar undan so'ng esa Xonliklar davrida shakllanib o'zining yuqori cho'qqisiga erishgan. Milliy tarbiyaning mazmuni mohiyatini tushunish yetishda biz asosan tarixga yani o'zbek xalqining tarixiga tayanamiz. Bundan kelib chiqadiki, milliy tarbiyaning asl mohiyatni o'zbek xalqining tarixini to'g'ri va haqqoniy yoritish lozim.

Biz bu masalada birinchi navbatda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday ta'riflagan "Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" komillik tuyg'usini his etgan Alisher Navoiyga yuzlanamiz. Alisher Navoiyning shunday deydi "Kuchuk birla ho'tikni qancha qilma tarbiya, it bo'lur eshshak bo'lur aslo bo'lmas odamiy!". Bundan shunday mazmun kelib chiqadiki, kuchukni sen qancha tarbiya qilib mehır berma baribir u kuchukligiga boradi va bir kun kelib seni qopishi mumkin. Shunday ekan insonni tarbiyalash uchun uning eng avvalo milliyligini ongiga

singdirish kerak yoshlarimizning milliy vatanparvarlik ruhida va milliy odamiylik hamjihatlik singari ezgu g'oyalar orqali tarbiyalashimiz lozim deb hisoblayman. Umuman olganda shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida milliy tarbiyaning o'rni beqiyos. Chunki milliy tarbiya bu xalqning, millatning, fuqarolarning va jamiyatning tarbiyasidir.

Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki, axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tarbiya o'zi nima Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lganxususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan tuyg'ular yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyaga ta'lim to'g'risidagi qonunda shunday ta'riflagan " tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh

avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon" Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda insonlarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiyaning umumiy vazifalari:

1. jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

2. jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;

3. madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

4. ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish dan iborat.

Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Tarbiyaning yoshlar ongiga singdirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak buning uchun birinchi navbatda " Tarbiya" fanining sinflarning butun kesimida o'tilishidir bu o'z o'rnida quvonarli hodisa chunki "Tarbiya " fani hozirgi kunda 11-sinflarga ham o'qitilyapti. Shuning uchun ham tarbiyani biz yoshlarimizning ruhiy dunyoqarashi o'stiradi va rivojlantiradi. Xohlaymizmi yo'qmi internet rivojlanyapti, zamon takomillashib bormoqda bu bilan "ommaviy madaniyat" ham kirib kelyapti bu " ommaviy madaniyat " o'zi bilan bir qatorda bizning milliylikimizga ta'sir ko'rsatadigan turli xildagi illatlarni ham olib keladi. E'tiqodi butun, ruhiy dunyoqarashi pok va eng muhimi o'zinong milliy qadriyatlariga sodiq inson bu illatlarga qarshi tura oladi. Milliy tarbiya esa milliy qadriyatlar uyg'unligi shakllanadi.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar va asosli psixologik qonuniyatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning xarakterida, psixologik qonuniyat sifatida namoyon bo'lmayapti, mazkur fazilatlarga nisbatan amaliy odatlar sifatida shakllanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigitqizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oilada farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'yi- harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol

topib boradi. Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga etiborli bo'laylik, aynan shu mezon bolalarimizni ma'nan, ruxan sog'lom, o'z ota-bobolariga, tariximizga, Vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo'lib o'sib unishining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Шавкат Мирзиёев раислигида 2019 йил 23 август куни халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини оширишга бағишланган видеоселектор йиғилиши <https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>*
- 2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги ПҚ-3160-сонли <https://lex.uz/docs>*
- 3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 майдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4307-сон Қарори <https://lex.uz/docs/4320700>.*
- 4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040 қарори. <https://lex.uz/docs/5344692>*
- 5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги 1059-сонли қарори*